

“YO‘L” KONSEPTI VA UNING LINGVOMADANIY TALQINI: MAHMUD KOSHG‘ARIY VA ZAMONAVIY O‘ZBEK MAQOLLARI MISOLIDA”

Raximov Muzaffar Murodovich

Buxoro Davlat Universiteti tadqiqotchisi

m.m.raximov@buxdu.uz

Annotatsiya: Mazkur maqolada o‘zbek maqollarida uchraydigan “yo‘l” konsepti lingvomadaniy va semantik jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni Lug‘otit Turk” asaridagi maqollar bilan zamonaviy o‘zbek maqollarini qiyoslash orqali “yo‘l” konseptining tarixiy va madaniy qatlamlarini ochib beradi. “Yo‘l” konsepti xalq tafakkurida hayotiy tanlov, axloqiy pozitsiya, e’tiqod, qismat va harakat kabi tushunchalar bilan semantik jihatdan bog‘langanligi aniqlanadi. Ushbu konsept semantik guruhlarga ajratilib, uning lingvistik o‘zagi va periferiyasi aniqlanadi. Maqola lingvomadaniy tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: yo‘l konsepti, maqollar, lingvomadaniy tahlil, Koshg‘ariy, semantik guruh, qadriyat, xalq tafakkuri, tanlov, tafakkur, madaniyat.

Аннотация: В данной статье анализируется концепт «дорога», встречающийся в узбекских пословицах, с точки зрения лингвокультурного и семантического анализа. Исследование включает сопоставление пословиц из труда Махмуда Кашигари «Девону луготит турк» с современными узбекскими пословицами, что позволяет выявить исторические и культурные слои концепта «дорога». Концепт тесно связан с такими понятиями, как жизненный выбор, моральная позиция, вера, судьба и движение. В статье выделяются семантические группы концепта, его лингвистическое ядро и периферия. Работа служит основой для лингвокультурологических исследований.

Ключевые слова: концепт «дорога», пословицы, лингвокультурный анализ, Кашигари, семантическая группа, ценности, народное мышление, выбор, культура.

Abstract: This article presents a linguocultural and semantic analysis of the concept of “road” as found in Uzbek proverbs. By comparing Mahmud Kashgari’s “Devoni Lug‘otit Turk” with contemporary Uzbek proverbs, the study reveals the historical and cultural dimensions of the “road” concept. The concept is shown to be semantically linked to life choices, moral positions, faith, fate, and movement. The article classifies the concept into semantic groups and identifies its linguistic core and peripheral meanings. The findings offer a foundation for further linguocultural research.

Keywords: road concept, proverbs, linguocultural analysis, Kashgari, semantic grouping, values, folk cognition, choice, thought, culture.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Kirish. O‘zbek xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy, badiiy jihatdan ixcham, ammo mazmun jihatdan nihoyatda teran qatlamini tashkil etuvchi maqollar har doim xalq tafakkurining eng yuksak shakli sifatida e’tirof etib kelinadi. Maqollar, o‘z mohiyatiga ko‘ra, milliy ruh, axloqiy me’yorlar, estetik qarashlar, tarixiy xotira va ijtimoiy tajribaning umumlashgan timsolidir. Ayniqsa, ular xalq tafakkurining konseptual tizimini ochib berishda muhim lingvomadaniy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu jihatdan, maqollarni o‘rganish – nafaqat tilshunoslik va folklorshunoslik, balki madaniyatshunoslik, sotsiolingvistika, falsafa va antropologiya kabi turli fanlar chorrahasida turadi [Islomov, 2020, 61].

Mazkur maqolada maqollar tarkibida uchraydigan "yo‘l" leksikasi asosida hosil bo‘ladigan konseptosferaning tahliliga e’tibor qaratiladi. "Yo‘l" so‘zi yuzaki qaraganda transport vositasi harakati uchun mo‘ljallangan yo‘nalish yoki makon sifatida qabul qilinadi. Biroq maqollar kontekstida bu so‘z chuqurroq ma’noga ega bo‘lib, inson hayotidagi tanlov, qadriyatlar, qismat, e’tiqod, to‘g‘rilik va yo‘ldan ozish kabi turli darajadagi semantik qatlamlarni o‘z ichiga oladi. Bu esa "yo‘l" so‘zining nafaqat lisoniy birlik, balki madaniy-kognitiv konsept sifatida faol ishlashini ko‘rsatadi.

Xalq ijodida har bir maqol mazmuni ma’lum bir konsept asosida shakllanadi. Bunda konsept so‘zning semantik yadrosi asosida kengaytirilgan tushunchalar sistemasi sifatida namoyon bo‘ladi. Yu.N. Karaulov qayd etganidek, konseptlar tilda faqat nominatsiya vazifasini emas, balki madaniy xotira va kognitiv asos bo‘lib ham xizmat qiladi [Karaulov, 1987, 98]. Shu nuqtayi nazardan, "yo‘l" konsepti orqali milliy tafakkurning qadimiy qatlamlarini ochish mumkin.

Bu tadqiqotning asosiy maqsadi – o‘zbek maqollaridagi "yo‘l" konseptining semantik va madaniy yuklamalarini aniqlash, Mahmud Koshg‘ariy asaridagi maqollar bilan zamonaviy paremiologik materiallarni taqqoslab, tarixiy-lisoniy kontekstda o‘rganishdan iboratdir. Ayniqsa, XI asrning yirik tilshunosi va paremiologi Mahmud Koshg‘ariyning "Devoni Lug‘otit Turk" asarida keltirilgan maqollar bugungi o‘zbek tilidagi maqollar bilan semantik va struktural o‘xshashliklar orqali tahlil qilinadi. Ushbu yondashuv maqollarning diaxron taraqqiyotini ko‘rsatish imkonini beradi.

Shu bilan birga, maqollar orqali til va tafakkur o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatish ham maqolaning maqsadlaridan biridir. Zero, maqollar tilning estetik funksiyasini, xalqning milliy ruhini, axloqiy me’yorlarini va dunyoqarashini ifodalovchi badiiy-falsafiy shakldir. Ular nafaqat tilni o‘rganish, balki xalq tafakkurini, qadriyatlarini, tarixiy xotirasini va jamiyatdagi axloqiy-estetik tamoyillarni tadqiq qilishda muhim vositadir. Bu jihatdan maqollar haqidagi tadqiqotlar bugungi tilshunoslikda dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi [Sharipova, 2022, 14].

Xulosa qilib aytganda, "yo‘l" konsepti – xalq ijodida qat’iyat, to‘g‘rilik, taqdir, axloqiy tanlov, diniy e’tiqod va ijtimoiy qadriyatlarning umumlashgan ifodasidir. Shu sababli "yo‘l" konsepti atrofida shakllangan maqollarni konseptosfera doirasida lingvomadaniy yondashuv

 STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

orqali o‘rganish zamonaviy tilshunoslikda yangi istiqbolli yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etiladi.

Metodologiya. Ushbu maqola o‘zbek maqollarida uchraydigan “yo‘l” konseptining lingvomadaniy mazmunini, tarixiy va zamonaviy kontekstlardagi semantik tahlilini amalga oshirishni maqsad qilgan bo‘lib, mazkur maqsadga erishish uchun kompleks metodlar tizimi qo‘llanildi. Tadqiqotning lisoniy tahlil yo‘nalishi, manbaviy bazasi va nazariy yondashuvlari quyida batafsil bayon etiladi.

Birinchidan, maqollarni o‘rganishda deskriptiv-lisoniy tahlil usuli asosiy metod sifatida tanlandi. Bu usul orqali maqollarda “yo‘l” so‘zining yuzaki va chuqr semantik qatlamlari aniqlanib, ularning grammatik, fonetik va sintaktik ko‘rinishlari tasniflandi. Har bir maqol kontekstda o‘z funksional yuklamasi bilan ko‘rib chiqildi, ya’ni til birliklari orqali xalqning kognitiv dunyoqarashi qanday ifodalanganiga e’tibor qaratildi [Islomov, 2020, 63-bet].

Ikkinchidan, semantik guruhash usuli asosida “yo‘l” ishtirok etgan maqollar to‘g‘ri, ko‘chma va assotsiativ ma’no darajalariga ko‘ra tahlil qilindi. Mazkur yondashuv orqali maqollar uchta asosiy semantik guruha ajratildi: 1) real, aniq transport va geografik kontekstdagi yo‘llar (masalan: “Yo‘l yurilsa uzoq, so‘z so‘zlansa chuqr”); 2) majoziy – hayotiy yo‘l, tanlov, qismat (masalan: “To‘g‘ri yo‘l o‘nglik olib kelar”); 3) assotsiativ – yo‘l orqali bildirilgan boshqa ko‘p qirrali qadriyatlar, diniy va axloqiy tushunchalar (masalan: “Yo‘ldan ozgan odamdan qo‘rq”).

Uchinchidan, tarixiy-taqqosiy metod yordamida XI asrga oid Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni Lug‘otit Turk” asarida qayd etilgan maqollar zamonaviy o‘zbek tilidagi maqollar bilan semantik va struktural jihatdan qiyoslab tahlil qilindi. Bunda ayniqsa “yo‘l” konsepti bilan bog‘liq 80 dan ortiq maqol va matallar o‘zaro solishtirildi. Bu metod maqollar mazmunining tarixiy qatlamini ochishda samarali bo‘ldi [Koshg‘ariy, 1072, 122–163-betlar oralig‘i].

To‘rtinchidan, maqol tahlilida lingvomadaniy yondashuv muhim o‘rin egalladi. Bu yondashuvga ko‘ra, “yo‘l” faqat lisoniy birlik sifatida emas, balki milliy-madaniy konsept sifatida qaraldi. Har bir maqol orqali xalqning tarixiy-madaniy xotirasi, qadriyatlar tizimi, e’tiqodlari va ijtimoiy pozitsiyasi aks ettiriladi. “Yo‘l” orqali inson tanlovi, tavakkalchiligi, axloqiy pozitsiyasi va jamiyatdagi o‘rni belgilanishi ko‘rsatib berildi [Tursunov, 2019, 70-bet].

Tadqiqotning manbaviy bazasi quyidagilardan iborat bo‘ldi:

Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni Lug‘otit Turk” asari – tarixiy maqollar va “yo‘l” konsepti ifodasining ilk shakllarini aniqlashda asosiy manba sifatida xizmat qildi.

Zamonaviy o‘zbek maqollar to‘plamlari – bugungi kunda xalq og‘zaki ijodida yashab kelayotgan “yo‘l” tushunchasining hozirgi talqinlarini aniqlashga yordam berdi.

Tog‘ay Murodning realistik va falsafiy prozasi – konseptual obrazlar orqali “yo‘l”ning badiiy refleksiyasini tahlil qilishda misol bo‘ldi [Murad, 2001, 88-bet].

Tadqiqotning nazariy asoslari sifatida quyidagi kontseptsiyalar tayanilgan:

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Yu.N. Karaulovning konseptosfera nazariyasi. Unga ko'ra, har bir til birligi – muayyan kognitiv va madaniy kontentning tashuvchisidir. "Yo'l" esa xalq tafakkuridagi "tanlov", "maqsad sari harakat", "to'g'rilik" kabi tushunchalarni semantik o'zagiga joylashtiradi [Karaulov, 1987, 98-bet].

A. Vezhbitskayaning semantik invariantlar nazariyasi – maqollarni madaniy kod sifatida tahlil qilishda qo'llanilib, "yo'l" konseptining universal va milliy jihatlarini aniqlashga xizmat qildi [Vezhbitskaya, 1996, 22-bet].

Shu tarzda, mazkur tadqiqot metodologiyasi lingvistik, tarixiy va madaniy yondashuvlarning uyg'unlashuvi asosida shakllantirilib, "yo'l" konseptining konseptosferik xaritasini ilmiy asosda aniqlash imkonini berdi.

Natijalar. Tadqiqot davomida o'zbek maqollarida uchraydigan "yo'l" leksikasi ishtirokidagi birliklar lingvomadaniy va semantik jihatdan tizimli tahlil qilindi. Olingan natijalarga ko'ra, umumiy hisobda 105 ta maqolda "yo'l" konsepti qatnashgan bo'lib, ular xalq tafakkurining muayyan konseptual asosda shakllanganligini ko'rsatadi. Ushbu maqollar til birliklari orqali milliy dunyoqarash, qadriyatlar tizimi, axloqiy normalar va tarixiy xotirani ifoda etadi. Maqollar semantik xususiyatlari ko'ra uch guruhga ajratildi: to'g'ri ma'no, ko'chma ma'no va assotsiativ ma'no.

Birinchi guruh, ya'ni to'g'ri ma'nodagi maqollar 35 tani tashkil etadi. Bu maqollar "yo'l" so'zini real, ya'ni geografik yoki harakat makoni sifatida talqin qiladi. Ular ko'pincha yo'l yurish, safar qilish, yo'l belgilari va yo'l dagi xavf-xatarlarga doir xalq tajribasini ifodalaydi. Masalan, "Yaxshi yo'l omadga eltadi" degan maqolda yo'l holatining bevosita harakat natijasiga ta'siri ta'kidlangan. "Yo'l yurilsa uzoq, so'z so'zlansa chuqur" maqolida esa yurish va tafakkur jarayonlari o'rtasida semantik analogiya mavjud [Islomov, 2020, 67]. Mahmud Koshg'ariyning "Devoni Lug'otit Turk" asarida ham bu guruhga oid ko'plab maqollar keltirilgan. Jumladan, "Yol ogurlandi" maqolida yo'l muborak va omon bo'lishi ma'nosi berilgan bo'lsa, "Beg yol kerdi" shaklidagi iborada muhim shaxslar uchun yo'lning kengaytirilishi holati tasvirlangan bo'lib, bu ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning til ifodasi sifatida ahamiyatlidir [Koshg'ariy, 1072, 144–137].

Ikkinci guruh — ko'chma ma'nodagi maqollar — 44 tani tashkil etadi. Bu maqollar "yo'l" konseptini hayot yo'li, e'tiqod, to'g'rilik, halollik, tanlov va ijtimoiy pozitsiya kabi metaforik kontekstda ishlataladi. Masalan, "To'g'ri yo'l o'nglik olib kelar" maqolida yo'l axloqiy-psixologik pozitsiyani bildiruvchi ramz sifatida namoyon bo'ladi. "Yo'lidan ozgan odamdan qo'rq" degan ibora esa insoniy qadr-qimmat va ijtimoiy xavf o'rtasidagi bog'liqlikni ifodalaydi [Sharipova, 2022, 15]. Koshg'ariy tomonidan keltirilgan "Yol adri'ldi" maqoli do'stlik yoki yo'lning ajralishi, hayotdagi yo'nalishlarning ajralishi bilan bog'liq [Koshg'ariy, 1072, 131]. Yana bir misolda, "Awci nechal bilsa, ayig ancha yol bilir" degan maqolda antagonistik kuchlar o'rtasidagi muvozanat ko'rsatiladi — ovchi hiyla bilsa, ayiq ham qochish yo'lini biladi. Bu tur maqollar xalq tafakkurida ma'naviy tanlov, e'tiqod va ijtimoiy irodani ifodalovchi vosita sifatida xizmat qiladi.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Uchinchi guruh — assotsiativ ma'nodagi maqollar — 26 tani tashkil etadi. Bu maqollar “yo'l” so‘zini chuqur ramziy va metafizik anglamda qo'llaydi. Bu yerda yo'l — saodat, ilhom, duo, bashorat, marhamat kabi ko‘plab kognitiv va diniy-falsafiy qadriyatlar bilan bog‘lanadi. Masalan, “Ula bolsa yol azmas, biling bolsa soz yazmas” maqolida yo'l belgisi va aql-idrok o‘rtasidagi analogiya ko‘zga tashlanadi. “Yo'lga chiqmagan qush ucholmaydi” iborasida esa tashabbus, intilish va harakat zarurligi ifodalangan. Bu maqollar orasida, ayniqsa, Tog‘ay Murod prozasidagi badiiy obrazlar alohida ahamiyat kasb etadi. Muallif “Otamdan qolgan dalalar” asarida yo'l obraziniadolat, poklik va hayotiy kurash timsoli sifatida tasvirlaydi. Jumladan, “Yo'l bor, ammo ko‘ngil bosmagan yo'lga yurilmaydi” degan jumla orqali tanlov va ichki haqiqat muvofiqligi ta'kidlanadi [Murad, 2001, 88].

Maqollar semantik tahlili quyidagi xulosani beradi: birinchi guruh (to‘g‘ri ma’no) real va tashqi harakat bilan bog‘liq bo‘lsa, ikkinchi guruh (ko‘chma ma’no) axloqiy-dunyoqarash mezonlarini ko‘rsatadi, uchinchi guruh (assotsiativ) esa ruhiy-madaniy va diniy anglamlarni ifodalaydi. Shu tariqa, “yo'l” konsepti o‘zbek xalq maqollarida ko‘p qirrali semantik yuklama bilan chiqadi va til orqali xalqning ijtimoiy-madaniy xotirasini saqlab qoluvchi ramzga aylanadi.

Vaqt mezoniga ko‘ra ham semantik kengayish kuzatiladi. XI asr manbalarida, xususan, “Devoni Lug‘otit Turk”da “yo'l” ko‘proq real, harbiy va ijtimoiy kontekstda qo’llanilgan bo‘lsa, zamonaviy maqollarda u ramziy va kognitiv jihatdan boyitilgan shaklda uchraydi. Bu esa konseptosferaning diaxron taraqqiyotini, til tafakkurida semantik o‘zgarishlar jarayonini ochib beradi [Karaulov, 1987, 98].

Natijalarning umumiyligi xulosasi shuki, “yo'l” konsepti xalq og‘zaki ijodining turli bosqichlarida nafaqat transport yoki geografik obyekt sifatida, balki insoniy tanlov, axloq, e’tiqod, irodaviy kuch, diniy ong va madaniy mezonlar timsolida shakllanib, xalq tafakkurining murakkab semiosferasini tashkil qiladi.

Muhokama. Olib borilgan semantik va lingvomadaniy tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, “yo'l” leksikasi o‘zbek xalq tafakkurida faqatgina geografik obyekt emas, balki butun bir kognitiv konsept sifatida qaraladi. Mazkur konsept til birliklari orqali o‘zining semantik kengayishini namoyon qiladi va xalq ongida muhim ijtimoiy-madaniy kod sifatida mustahkam joy egallaydi. Ayniqsa, “yo'l” so‘zining xalq maqollaridagi ifodalananish shakllari uni yo‘nalish, tanlov, irodaviy qat’iyat, e’tiqod, ba’zan esa taqdir va qismat timsoliga aylantiradi [Tursunov, 2019, 73].

Qadimiy maqollarda “yo'l” ko‘proq realistik va harbiy kontekstda talqin qilingan. Mahmud Koshg‘ariy asarida bu holat yaqqol namoyon bo‘ladi. Masalan, “Beg yol kerdi” degan maqolda harakatdan oldin yo‘lni kengaytirish zarurati, “Yol ogurlandi” iborasida esa yo‘lning muborak bo‘lishi istagi real safarga doir madaniy qadriyatlarni ifodalaydi [Koshg‘ariy, 1072, 137–144]. Ushbu maqollar o‘rta asrlardagi ko‘chmanchi jamiyatlar hayot tarzini, harakat xavfsizligini, yo‘lni belgilash tartibini va unga oid ijtimoiy munosabatlarni yoritadi.

STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

Ammo zamonaviy maqollarda “yo‘l” tushunchasi ko‘proq abstrakt, majoziy talqinga ega bo‘lib bormoqda. “Yo‘ldan ozgan odamdan qo‘rq” kabi maqollar axloqiy inqirozga ishora qilsa, “Har kim o‘z yo‘lida yuradi” kabi iboralar har bir insonning mustaqil qaror qabul qilish huquqiga urg‘u beradi. Bu maqollar “yo‘l” konseptini hayotiy tanlov, e’tiqod, maqsad va dunyoqarash bilan bog‘laydi. Bunday semantik kengayish til va tafakkur o‘rtasidagi bevosita aloqani ko‘rsatadi. Shuningdek, bu o‘zgarishlar xalq tafakkurida shaxsga yo‘naltirilgan (egotsentrik) yondashuv kuchayganini ham bildiradi. Ayni paytda, bu holat ma’naviy qadriyatlar bilan zamonaviy ijtimoiy ongning qovushish nuqtasidir.

“Yo‘l” leksikasi nafaqat ijtimoiy va axloqiy konnotatsiyaga ega, balki diniy-falsafiy mentalitetning ifodasi sifatida ham faol ishlatiladi. Jumladan, “Ula bolsa yol azmas, bilig bolsa soz yazmas” degan maqolda belgining yo‘ldagi ahamiyati, yo‘ldan adashmaslik uchun aqlning zarurligi haqida fikr yuritiladi. Bu esa xalq tafakkurida diniy ishora bilan mustahkamlangan – yo‘l belgisi Alloh tomonidan berilgan hidayatga o‘xshatiladi. Shu ma’noda, “yo‘l” tushunchasi xalq ongida haqiqatga olib boruvchi vosita sifatida ham tushuniladi. Konseptosfera sifatida “yo‘l” o‘z mohiyatiga ko‘ra muqaddaslik, sabr-toqat, halollik, izchillik, xolislik kabi tushunchalar bilan semantik bog‘lanadi.

Mazkur konsept turli davrlarda turlicha talqin etilganini tarixiy maqollar bilan zamonaviy variantlarni taqqoslab ko‘rish orqali ham aniqlash mumkin. Masalan, Koshg‘ariy maqollarida yo‘l tanlovi ko‘proq jamoaviy yoki ijtimoiy kuchlar bilan bog‘liq bo‘lsa, zamonaviy maqollarda bu tanlov shaxsiy irodaga tayanadi. Qadimgi maqolda “Yol adri‘ldi” – yo‘l ajraldi degan ibora ikki do‘sning ajralishini bildirgan bo‘lsa, bugungi kundagi “Yo‘limiz boshqa” degan ibora ko‘proq dunyoqarash farqiga ishora qiladi. Demak, yo‘l — ijtimoiy birlikdan individual qarash sari bo‘lgan semantik siljishni ham ifodalaydi.

Bundan tashqari, T.Murod prozasida “yo‘l” tushunchasi nihoyatda chuqur, badiiy-falsafiy qatlamda ishlangan. Unga ko‘ra, yo‘l nafaqat harakat vositasi, balki insoniylik va poklik, haqiqatga sodiqlik timsolidir. “Yo‘l bor, ammo ko‘ngil bosmagan yo‘lga yurilmaydi” degan jumla orqali inson qalbidagi e’tiqod,adolat va tanlov erkinligi badiiy ifoda topadi [Murad, 2001, 88]. Bu holat “yo‘l” konseptining zamonaviy o‘zbek adabiyotidagi kengaygan semiosferasini ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “yo‘l” konsepti tilimizda va xalq tafakkurida asrlar mobaynida saqlanib kelgan, o‘z semantik chegarasini kengaytirib borgan, ijtimoiy, diniy, axloqiy va falsafiy qatlamlarda chuqur ildiz otgan murakkab konseptual birlikdir. Uning maqollar tarkibidagi ko‘rinishlari orqali xalqning o‘zligini, qadriyatlar tizimini, tarixiy tajribasini va madaniy ongini aniqlash mumkin. “Yo‘l” – harakat emas, qaror. Yo‘l – faqat manzil emas, balki ma’no. Ana shu ichki mazmunni ochib berish maqolaning asosiy yutug‘i bo‘ldi.

Xulosa. Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida “yo‘l” konseptining semantik va lingvomadaniy tahlili amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, “yo‘l” leksikasi xalq tafakkurida turli darajadagi ma’no qatlamlariga ega bo‘lib, u nafaqat harakat vositasi yoki geografik tushuncha, balki tanlov, qismat, e’tiqod, to‘g‘rilik, va axloqiy pozitsiyaning

 STUDYING THE PROGRESS OF SCIENCE AND ITS SHORTCOMINGS

ramzi sifatida ham ishlaydi. Bu esa “yo‘l” so‘zining konseptosfera doirasida shakllangan murakkab semantik tizimga ega ekanligini anglatadi.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni Lug‘otit Turk” asarida uchraydigan maqollar ushbu konseptning qadimiy qatlamlarini olib beradi. Ularda “yo‘l” real harakat, safar va ijtimoiy-marosimiy munosabatlar bilan bog‘liq bo‘lsa, zamonaviy maqollarda bu konsept ko‘proq shaxsiy tanlov, hayot falsafasi va ma’naviy qadriyatlar bilan bog‘langan. Ushbu semantik siljish til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatib beradi.

Maqollarni semantik guruhlarga ajratish orqali “yo‘l” konseptining o‘zagi va periferiyasi aniq belgilandi. To‘g‘ri ma’no, ko‘chma ma’no va assotsiativ ma’nolardagi bo‘limmalar xalq tafakkuridagi “yo‘l” obrazining turfa qirralarini olib berdi. Natijada “yo‘l” konsepti nafaqat lingvistik birlik, balki madaniyat, tafakkur, tarix va e’tiqod bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan semantik maydon sifatida namoyon bo‘ldi.

Kelgusidagi tadqiqotlar uchun quyidagi tavsiyalar ilgari suriladi: maqollarni tarixiy-dinamik taraqqiyot jarayonida diaxron tahlil qilish zarur, chunki bu orqali konseptlarning vaqt o‘tishi bilan qanday semantik o‘zgarishlarga uchrashi aniqlanishi mumkin. Shuningdek, “yo‘l” konsepti ishtirokidagi maqollarni boshqa tillardagi paremiologik materiallar bilan qiyoslab, ko‘p tilli va ko‘p madaniyatli lingvokulturologik tadqiqotlar doirasida o‘rganish ilmiy jamoatchilik uchun foydali istiqbollarni ochadi.

ADABIYOTLAR:

1. Islomov, S. (2020). Til va tafakkur uyg‘unligi. Toshkent: Fan nashriyoti.
2. Karaulov, Yu. N. (1987). Russkiy yazik i yazikovaya lichnost. Moskva: Nauka.
3. Koshg‘ariy, M. (1072). Devoni lug‘otit turk (Nasriddinov tarjimasi). Toshkent: Fan.
4. Murad, T. (2001). Otamdan qolgan dalalar. Toshkent: Sharq.
5. Sharipova, N. (2022). “Maqollar semantikasi va konseptual tahlili”. O‘zbek tili va adabiyoti, 4, 12–22.
6. Tursunov, R. (2019). “Maqollar tili – xalq tafakkuri ifodasi”. Filologiya masalalari, 1, 69–76.
7. Vezhbitskaya, A. (1996). Language, Culture, and Meaning. Oxford University Press.
8. Murodovich, R. M. (2025, May). KONTSEPT KOGNITIV TILSHUNOSLIKNING ASOSIY TUSHUNCHASI SIFATIDA. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 3, No. 5, pp. 60-63).
9. Razokovna, O. M. (2024, March). Creating an electronic database of terms used in the field of music and dance. In CONFERENCE ON THE ROLE AND IMPORTANCE OF SCIENCE IN THE MODERN WORLD (Vol. 1, No. 2, pp. 53-56).
10. Razzokovna, O. M. (2020). Suspense as a Literary Device in English Literature. International Journal on Integrated Education, 3(1), 168-172.